

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA KASBIY FAOLIYAT VA INNOVATSION TA'LIMNING MAZMUN-MOHIIYATI

Mirzayeva Zulxumor Jo'ramuratovna

*Toshkent shahar Uchtepa tumani 229-umumiy
o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada biologiya fanini o'qitishda kasbiy faoliyat va innovatsion ta'limning mazmun-mohiyati yoritilgan bo'lib, undagi usullar o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: maktabda biologiya fanini o'qitishda har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilik, yangi metodlardan foydalanishni amalga oshirish, ya'ni multimediali taqdimot materiallari ko'rsatib berish.

Usullar: "Qarmoq", "Topib ko'rchi", "Domino", "Hayvonlar xaritasi"...

Natija: O'quvchilarning biologiya fani bo'yicha bilimlarini oshirish, ularning ushbu fan bo'yicha bilimlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat va innovatsion ta'limning mazmun-mohiyati ochib berish.

Kalit so'zlar: biologiya, pedagogik jarayon, ko'nikma, malaka, odam organizmi..

THE ESSENCE OF PROFESSIONAL ACTIVITY AND INNOVATIVE EDUCATION IN THE TEACHING OF BIOLOGY

Abstract: This scientific article describes the essence of professional activity and innovative education in the teaching of biological science, the methods of which are important in the cognitive activity of students and the pedagogical activity of the teacher.

The purpose of writing this article is to demonstrate the use of new methods, i.e. multimedia presentation materials, based on the content of each subject in the teaching of biology at school.

Methods: "Fish", "Find and see", "Domino", "Animal map"...

Result: To increase students' knowledge of biology, to develop their knowledge of this subject, to reveal the essence of professional activity and innovative education.

Key words: biology, pedagogical process, skills, competence, human organism.

СУЩНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация: В данной научной статье раскрыта сущность профессиональной деятельности и инновационного образования в преподавании биологических наук, методы которой имеют важное значение в познавательной деятельности студентов и педагогической деятельности преподавателя.

Цель написания данной статьи – продемонстрировать использование новых методов, т.е. мультимедийных презентационных материалов, исходя из содержания каждого предмета в преподавании биологии в школе.

Методы: «Рыбка», «Найди и увидь», «Домино», «Карта животных»...

Результат: Повысить знания учащихся по биологии, развить их знания по данному предмету, раскрыть сущность профессиональной деятельности и инновационного образования.

Ключевые слова: биология, педагогический процесс, умения, компетентность, организм человека.

Barchamizga ayonki, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovasion texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovasion texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Biologiya fanini o'qitishda quyidagilardan foydalanish mumkin:

- har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni multimedialli taqdimot materiallari;
- biologik jarayonlarning animatsiyasi; virtual laboratoriya va amaliy ishlar;
- ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya;
- biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturlari; biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari;
- o'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari; o'quvchilarning mustaqil ta'limi va ishi uchun o'quv-axborot saytlari;
- didaktik o'yinga asoslangan animatsiyalar;
- qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi;
- modul dasturlari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish-boshqarish; - qo'shimcha materiallar to'plash va ular ustida mustaqil ishlash;
- didaktik o'yinlar, boshqotirmalarni yechish.

Demak, biologiya fanini o'qitishda innovasion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabda biologiya fani o'quvchilarda atrof-olam haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishi, odam organizmining tuzilishi va funksiyasi, gigiyena qoidalari, tabiatga ongli munosabatda bo'lish, ekologik ong shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, interfaol dars o'tish-bu, bilim olish faoliyatining o'ziga xos, pedagogik jarayon

samaradorligini oshirishning potensial imkoniyatlari yuqori uslubi hisoblanadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning, o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan "Keys", "Insert", "Waster", Venn diagrammasi, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i", tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.



"Topib ko'rchi" usuli. Bunda o'quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Fanga oid rasmlardan birini doskadagi o'quvchi orqasidan o'tirganlarga ko'rsatadi. O'tirgan o'quvchilar shu rasimga tegishli tushunchalarni ayta boshlaydi. Doskadagi o'quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi.

"Domino" usuli. Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar atama yoki biologiya faniga oid so'zning oxirgi harfiga keyingi so'zni bog'laydi.

Masalan: **Amyoba-askarida-ayiq-qo'ng'iz-zigota va boshqalar**


"Hayvonlar xaritasi" usuli. Bu usul hayvonlar yoki o'simliklarning tarqalish joylarini eslab qolishlari uchun qo'llaniladi. Bunda o'quvchilarga "xarita" va hayvonlar nomlari yozilgan varaqchalar beriladi. O'quvchilar hayvon yoki o'simliklarni ular taqalgan xududlarga joylashtirib chiqishadi. **M: Qora dengiz-lansetnik, ildizog'iz medusa**

O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim-qoraqurt, Yaponiya –Tut ipak qurti, Orol-laqqqa

Sirdaryo-bakra, Zarafshon –mo'ylov baliq, Qizilqum-tez kaltakesak

Mirzacho'l-qalqontumshuq





Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, biologiya fani o'qituvchilari o'qitishning moddiy-texnik bazasini tashkil etishlari, saqlashlari va undan samarali foydalanishlari orqali o'quvchilarda ta'lim mazmunini shakllantirish va rivojlantirishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bugun o'quvchiga faqatgina nazariy bilimlar berishning o'zi yetarli emas. Ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bunda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'rnini beqiyos ekanini doimo yodda tutish, darslarga yuqorisaviyada tayyorgarlik ko'rish biz - pedagoglar oldida turgan asosiy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007-yil.
2. A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002-yil.
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» 2004-yil.